



**KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI
MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING
TEXNOLOGIYALARI SAMARADORLIGI**

Navoiy davlat Pedagogika instituti
Jismoniy madaniyat fakulteti
Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari
nazariyasi va metodikasi mutaxassisligi II bosqich magistranti

Rasulova Sitora Saparovna

Ilmiy rahbar

Phd dotsent **Musayev Otabek Qudratovich**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13959169>

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolda kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatga tayyorlashning turli texnologiyalari va samaradorligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ilmiy, kompetensiya, ma'naviyat, ma'rifat, texnologiya, zamonaviy.

Zamonaviy jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida ro'y berayotgan o'zgarishlar pedagogga yangi talablarni qo'yadi. Bu keng ko'lamli umumiy madaniy, professional va maxsus vakolatlarga ega, yangi kasbiy talablar va mehnat sharoitlariga munosib javob bera oladigan mutaxassis bo'lishi kerak. Shiddat bilan o'zgarib borayotgan jamiyatda yashash va ishlashga tayyor bo'lgan professional o'qituvchini tayyorlash - bu kasbiy pedagogik ta'lim tizimi oldida turgan strategik vazifadir. Shuning uchun bugungi kunda ta'limning kompetensiya paradigmasiga o'tish dolzarblashmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot O'zbekiston Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tadqiqot ishimizga dasturul amal bo'lib xizmat qiladi. Mamlakatimizda kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada oliy ta'lim muassasalarining eng muhim vazifalaridan biri - bu bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini shakllantirishdir. Kasbiy tayyorgarlik - zaruriy kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish asosida yuzaga keluvchi shaxs ijtimoiy kompetentligining o'ziga xos ko'rinishi sifatida izohlanadi. Kasbiy tayyorgarlik o'z-o'zidan yuzaga kelmay balki aniq maqsadlar asosida rejalashtirilgan muayyan bosqichlarni qamrab oladi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib,





ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimizning tashabbuslari bilan mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, yosh avlodning har jihatdan yetuk, jismonan sog'lom, intellektual salohiyatli, ma'nan barkamol ulg'ayishi uchun, shuningdek yoshlarni qilgan mehnati, erishgan yutuqlariga yarasha rag'batlantirishga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo'li¹- oliy ta'limda yangicha, ya'ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabdan bilim va ko'nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog'liqlikda, o'z navbatida, o'qitish metodlarini tanlash tizimi ham o'zgarishga uchraydi. O'qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo'llash ta'lim jarayonida qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi. Xalqaro tajribaga asoslangan, mahalliy pedagogika va psixologiya yutuqlarini e'tiborsiz qoldirib, kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish o'zini oqlamaydi. Shuni ham yodda tutish kerakki, ta'limning integral konstruksiyalarini ilmiy asoslashda chet el olimlari P.Ya.Galperin, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn ishlariga tayanganlar. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hshash bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalardir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, ²chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiqaradi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroz murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balkishu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin. O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Talabalarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni

1. ¹ Ergasheva Barno Ziyavuddin qizi "Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatgatayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida"- Qo'qon-2022
2. ² Ergasheva Barno Ziyavuddin qizi "Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatgatayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida"- Qo'qon-2022





o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbek olimlaridan Abdullayeva B.S., Sarimova D.S. Pedagoglarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha kompetensiyalarni rivojlantirish, Ganiyeva S.A. Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirish, Xasanov A.A. Muloqot kompetensiyasining tuzilmasi, Nurillayev B.N, Qurbonazarov I.T. Eksperimental masalalar orqali o'quvchilarda ijodiy va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish, O.K Musayev- Kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik qobiliyatlar kompleksini takomillashtirish(oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari misolida)ish olib borganlar. Bu esa ushbu fanlar misolida o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni va o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirishdagi zaruriy tayanch va fanga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlashtirish, tayanch va fanlarga oid umumiy kompetensiyaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning kompetentligini rivojlantirish modeli va metodlarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi. Dotsent S.B.Qorayev, N.I Tirkashev o'zlarining tadqiqot ishlarida „Kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan ta'limning bir qator jihatlarini ko'rib o'tganlar, va kasbiy, amaliy kompetentlik turlari va ularning rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritilganlar. Ular o'z tadqiqot ishlarida Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadilar. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish tamoyillari, ularning pedagogik tizim bo'g'inlaridagi o'zgarishlarga ta'siri, psixologik va metodologik asoslari va xususiyatlari, mustaqil ravishda ta'lim natijalariga erishish konsepsiyasi, kompetensiyaviy yondashuv talqini, shaxsni rivojlantirishga yo'naltirilgan, ijtimoiy va ma'lum bir sohadagi faoliyatga doir kompetensiyalarga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. O'qituvchilarning kompetentligini oshirishning o'quv-metodik ta'minoti sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar, amaliy mashg'ulotlarning virtual shakllarini joriy etish, kasbga yo'naltirilgan fanlarni o'qitishdagi kompetensiyaviy yondashuvlar, fanlararo bog'liqlikni aks ettiruvchi amaliy mashg'ulotlar asosida o'qitish ta'limning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilishlarini bildirib o'tganlar





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son asosida O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim Tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021).
2. Upravleniye obrazovatebnimi sistemami. Uchebno - metodicheskoye posobiye dlya vuzov. - M.: Literaturnoye agentstvo «Universitetskaya kniga», 2004. - 136 s.77
3. Ergasheva Barno Ziyavuddin qizi "Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatgatayyorlash texnologiyasi pedagogik muammo sifatida"- Qo'qon-2022

